


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



**PEDAGOGIKA
FAN DASTURI**

Bilim sohalari:	100000	-Gumanitar soha
	200000	-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohalari:	120000	-Gumanitar fanlar
	230000	-Iqtisod
	210000	-Sotsiologiya va psixologiya
Ta'lim yo'nalishlari:	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha);
	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillari bo'yicha);
	5120200	- Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha);
	5120300	- Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha);
	5120700	- Jahon siyosati (mintaqalar bo'yicha);
	5210800	- Sharq falsafasi va madaniyati;
	5231000	- Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha).

Toshkent – 2020

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "23" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "29" 08 dagi 452 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:


Xaydarova R.A. – TDSHU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Maxkamova S.X. – TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dots., p.f.n.

Karimova G.K. – Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyasi" kafedrasida v.b. dotsenti, PhD.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil " " dagi " " – sonli bayonnoma).



1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Pedagogika" o'quv dasturi bakalavriatlar uchun "Qo'shimcha fanlar" bloki bo'yicha Davlat ta'lim standartiga asoslanib tuzilgan. "Pedagogika" fani o'quv fani sifatida kasbiy-pedagogika tayyorgarligi tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Xozirgi davrda umumiy pedagogika fanini o'qitish mutaxassislarida pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, o'qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarish, umumiy tayyorgarlik bo'yicha bilimga ega bo'lishadi.

"Pedagogika" fani pedagogika nazariyasi va tarixi asoslaridan, pedagogik texnologiya va tarbiya nazariyasi bo'yicha mavzularni o'z ichiga olgan. Pedagogikadan xar bir bakalavr, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy xajmini, o'qituvchi-murabbiyga xos umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarini egallashlari lozim. Ayni paytda o'rta maxsus va kasb xunar ta'limi o'qituvchilarining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Shunga ko'ra har bir mutaxassis-o'qituvchi shaxsi o'ziga xos betakrordir va bu xolat o'z navbatida bakalavr-bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogikadan tayyorlash mazmuni, umumiy va o'ziga xos jixatlari va aloqadorligi o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabaniy pedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur xosil qiladi. Bo'lajak mutaxassis ushbu fanni o'rganar ekan, boshqa psixologik pedagogik o'quv fanlari, pedagogik-psixologik tushunchalar yuzasidan fikr yuritadi xamda ularning mohiyatini tushuna boradi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

Pedagogika bilim asoslari, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik kategoriyalar to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;

ta'lim, tarbiya nazariyasi asoslarini, shaxs rivojlanishi qonunlari, tushunchalar, pedagogik kategoriyalarni, bilish jarayonlarning xususiyatlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

talaba pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o'rta davrni va istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarni belgilash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati

Pedagogika tushunchasi. Shaxs–O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ekti. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. Islohotlarni amalga oshirish davrida o'qituvchi shaxsiga, ilmiy-pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash sharoitida pedagogik ilmiy – tadqiqotlarning ahamiyati, ularning vazifasi, yo'nalishlari. Pedagogik tadqiqotlarning turlari: asosiy, nazariy, amaliy.

2-mavzu. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uslublari

Pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va ularga nisbatan bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogikaning ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funksiyalari. Yosh avlodni tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda pedagogikaning ahamiyati.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish.

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, tavsifi va turlari. Nazariy tadqiqot uslublari: qiyosiy, tarixiy tahlil qilish va loyixalashtirish, empirik usullari, ilmiy pedagogik kuzatish va uning turlari.

3-mavzu. Pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Pedagogikaning rivojlanish tarixi. Antik davr pedagogikasi. Sharq pedagogikasi. Sharq renesansining pedagogika rivojlanishidagi o'rni. Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Navoiy, Bobur kabi buyuk sharq allomalarining asarlarida pedagogik qarashlar. Hadisi Sharifda ta'lim-tarbiyaning o'rni yoritilishi.

Yevropada pedagogika fanining rivojlanishi. G'arb uyg'onish davrining dunyo pedagogikasining shakllanishiga ta'siri.

Zamonaviy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.

4-mavzu. Tarbiya nazariyasi

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi ro'li.

Tarbiya nazariyasi. Sharq mutafakkirlarining tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari.

Tarbiya metodlari. O'qituvchi-pedagog ijodiy faoliyat egasi. Tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, talab va takliflarini hisobga olib tashkil etish.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Askarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
2. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi: (Bakalavriaturaning 140000 "O'qituvchilar tayyorlash" va "Pedagogika" fani soxasi yo'nalishlari uchun uquv qullanma) / A. Zunnunov, 2006. - 164
3. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi: O'quv qo'llanma.T.: "Fan va texnologiya" 2008
4. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, "Fan", 2001.
5. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
6. Педагогика. Под ред. В.А. Слестёнина. Учебное пособие- Москва, "Владос", 2013.
7. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Педагогика: Учебно-методическое пособие.-Т.:ТашГИВ, 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T: "O'zbekiston", 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz–T: "O'zbekiston", 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и просвещающее государство Узбекистан).
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T: "O'zbekiston", 2017.-48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа)
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz–T: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
12. Ibragimov X. Педагогика психология. Учебное пособие Т.:2009
13. Подласый И.Р. Педагогика. Учебник. М: Юрайт 2013.

Internet saytlari

14. www.press-service.uz
15. www.gov.uz
16. www.uzsci.net
17. www.zipsites.ru/books/index.
18. www.pedagog.uz
19. www.ziyonet.uz/ru/library

Tarbiyalanuvchilarni milliy g'oya, milliy mafkura ruxida tarbiyalash, vijdon va uni tarbiyalash, mexnat tarbiyasi, aql tarbiyasi, erkin fikrlash ruxida tarbiyalash, odob-axlok asoslari. Tarbiya metodlarini optimal tanlash va samarali qo'llash shartlari. Tarbiya metodlarini takomillashtirish.

5-mavzu. Didaktika–ta'lim nazariyasi

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligi, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, maqsadlari, vazifalari, uslublari.

Ta'lim – bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi. Mustaqillikni mustahkamlash ta'limning mohiyati – mazmuni ekanligi.

Ta'lim qonuniyatlari: ta'limning jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, ta'limda ma'lumot berish. Ta'lim qoidalari haqida tushuncha. Ta'limning ilmiyligi. Ta'limda uzviylik va izchillik. Ta'limda ongillik va faollik.

Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi. Ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish. Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

Ta'lim nazariyasining sharq mutafakkirlari asarlarida yoritilishi.

6-mavzu. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyixalashtirish asoslari

Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlari. O'quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarning vujudga kelish va namoyon bo'lish shakllari. Muvaffaqiyat vaziyatlarini modellash. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlar tahlilining mazmuni.

Oila pedagogik o'zaro munosabatlar hamda shaxs tarbiyasi va kamolotining sub'ekti sifatida. Oila - shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muhiti. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogikada o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish muammolari. O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga imkon beradigan omillar. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.

7-mavzu. Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash

Ta'lim sifati tushunchasi va turlicha talqini. Ta'lim mazmunining o'zlashtirilishi va ma'rifiy (ta'limiy, tarbiyaviy) jarayonlar natijalarini baholash. O'quvchilar bilimni nazorat qilish - ta'lim sifatini baholashning asosiy usuli. Baholash, uning funksiyalari va turlari. Ta'lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari (joriy, oraliq, yakuniy). O'zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari va metodlari. Taqdirlash va jazolash - rag'batlantirish metodi sifatida. Pedagogik test usuli, uning yutuqlari va kamchiliklari.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi
2. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi
3. Sharq allomalari asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari
4. Tarbiya nazariyasi. Shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi
5. Tarbiya nazariyasi. Oilada tarbiya asoslari
6. Didaktika-ta'lim nazariyasi. Ta'lim mazmuni.
7. Didaktika-ta'lim nazariyasi. Pedagogik texnologiyalar
8. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyixalashtirish asoslari
9. Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Fan bo'yicha *kurs ishi* o'quv rejada berilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bilimlar - ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi.
2. Dunyoqarash va uning mohiyati.
3. Bilim va diniy e'tiqodning o'zaro munosabati.
4. Akmeologiya va uning mohiyati.
5. Mutaxassisning pedagogik fazilatlar.
6. Qadriyatlar va ma'rifiy qadriyatlar.
7. O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar.
8. Ma'rifat va uning mohiyati.
10. Ma'rifat va madaniyatning o'zaro bog'liqligi.
11. Jahonda ma'rifiy fikrlar taraqqiyotining tarixiy-pedagogik tahlili.
12. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
13. XIV-XVI asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
14. XVII-XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
15. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
16. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya (ayrim mamlakatlar misolida).
17. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.
18. Pedagogikaning metodlari.
19. Pedagogikaning tarmoqlari.

20. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
21. Pedagogik tizimlar.
22. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va ularning tavsifi.
23. Ta'lim nazariyalari va ularning turlari.
24. Aqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
25. Muammoli ta'lim nazariyasi.
26. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.
27. Dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi.
28. Pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati.
29. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi.
30. Metodika va texnologiya.
31. Ta'lim metodlari va ularning tasnifi.
32. Ta'lim vositalari.
33. Ta'lim shakllari.
34. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
35. Muloqotli ta'lim texnologiyalari.
36. Modellashirish texnologiyalari.
37. O'yinli texnologiyalar.
38. Pedagogik muloqot.
39. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari.
40. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.
41. Pedagogik faoliyat funksiyalari va pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.
42. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi.
43. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi.
44. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.
45. O'quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi.
52. Oila-pedagogik o'zaro munosabatlar, sub'ekti.
53. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.
54. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish.
55. Ta'lim jarayoni: o'qitish va o'qish.
56. Matnlar bilan ishlash usullari.
57. Ta'lim sifati.
58. O'quvchilar bilimini nazorat qilish - ta'lim sifatini baholashning asosiy unsuri.
59. Pedagogik nazorat va o'quvchilar o'zlashtirishini baholash xususiyatlari.
60. Baholash, uning funksiyalari va turlari.
61. Ta'lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari.
62. O'zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari va metodlari.
63. Mukofotlash va jazolash - rag'batlantirish metodi sifatida.
64. Test usuli, uning yutuqlari va kamchiliklari.
65. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, loyixa ishlari tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.